



**QORAQALPOG 'ISTON MINTAQASIDA MEHMONXONALAR BANDLIGI
KO' RSATKICHLARINI OSHIRISH**

Uralova Matlyuba Axrorovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0003-5184-2750
uralovamatlyuba87@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston, O'zbekiston mintaqasidagi mehmonxona ob'ektlarining kam bandligi muammosi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot ushbu muammoni hal qilishning turli strategiyalari va yondashuvlarini, jumladan marketing tashabbuslari, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarini jalb qilish va hamkorlikni mustahkamlashni ko'rib chiqadi. Muallif mintaqada turizmni rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan mehmonxonalar bandligini oshirishga kompleks yondashuvni taklif etadi.

Kalit so'zlar: Qoraqalpog'iston Respublikasi, mehmonxona ob'ektlari, turizm infratuzilmasi, xizmatlar, joylashtirish vositalari, xorijlik va ichki sayyoohlar, bandlik muammosi, turizm va mintaqqa iqtisodiyoti, mehmonxona xonalari soni.

ПОВЫШЕНИЕ ЗАПОЛНЯЕМОСТИ ГОСТИНИЦ В КАРАКАЛПАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Уралова Матлюба Ахоровна
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема низкой заполняемости гостиничных объектов в регионе Каракалпакия, Узбекистан. В рамках исследования рассмотрены различные стратегии и подходы к решению данной проблемы, включая маркетинговые инициативы, улучшение качества обслуживания, развитие инфраструктуры, привлечение инвестиций и укрепление партнерских отношений. Автор предлагает комплексный подход к повышению заполняемости гостиниц, который может способствовать развитию туризма в регионе.

Ключевые слова: Республика Каракалпакстан, гостиничный хозяйств, туристическая инфраструктура, услуги, средства размещения, иностранные и внутренние туристы, проблема занятости, туризм и региональная экономика, номерной фонд.

INCREASING HOTEL OCCUPANCY RATES IN KARAKALPAK REGION

Uralova Matlyuba Akhrorovna
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the problem of low occupancy of hotel facilities in the Karakalpakstan region, Uzbekistan. The study examined various strategies and approaches to solving this problem, including marketing initiatives, improving service quality, developing infrastructure, attracting investment and strengthening partnerships. The author proposes an integrated approach to increasing hotel occupancy, which can contribute to the development of tourism in the region.

Key words: Republic of Karakalpakistan, hotel industry, tourism infrastructure, services, accommodation facilities, foreign and domestic tourists, employment problem, tourism and regional economy, rooms.

Kirish.

Qoraqalpog'iston mintaqasidagi mehmonxona obyektlarining kam bandligi muammosi dolzarb bo'lib, turizm sohasidagi tadqiqotchilar va amaliyotchilarning e'tiborini talab qiladi. Ushbu maqolada mintaqaning sayyohlik salohiyatini rivojlantirish maqsadida mehmonxonalar bandligini oshirishning turli strategiyalari va yondashuvlari ko'rib chiqilib, mehmonxona ob'ektlarining kam bandlik muammosini tahlil qilish uchun statistik ma'lumotlar, ekspert fikrlarini tahlil qilishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tahlil asosida mintaqadagi mehmonxonalar bandligini oshirishning asosiy strategiyalari va yondashuvlari ta'kidlandi.

Adabiyotlar sharhi.

Qoraqalpog'istondagi mehmonxonalarining bandlik ko'rsatkichlarini oshirish uchun zamonaviy va tez-tez o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarga nisbatan turli qarashlarni jamlagan omillar, tendensiya va tahlillardan foydalanish talab qilinadi. Bunga misol, Qambarovaning (2020) "Qoraqalpog'istondagi mehmonxonalarining bandligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash" tadqiqoti. Muallif iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning mintaqadagi mehmonxonalarini yuklash ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qiladi. Jumabayevning (2021) "Qoraqalpog'iston mehmonxona biznesini rivojlantirishda turizmning o'rni" maqolasi. Ishda mehmonxonalar bandligini oshirish usuli sifatida turistik oqimni ko'paytirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Atanbayevning (2022) "Qoraqalpog'iston mehmonxona infratuzilmasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish" ilmiy ishi. Muallif yukni oshirish uchun mehmonxona ob'ektlarini modernizatsiya qilish va kengaytirish choralarini taklif qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm vazirligining "2018-2022-yillar uchun mehmonxonalar bandligi statistikasi" hisoboti (2023). Mintaqadagi mehmonxonalarini yuklash ko'rsatkichlari dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Kenjebayevning (2019) "Qoraqalpog'istonda mehmonxona biznesini rivojlantirish tendensiyalari" monografiyasi. Muallif mehmonxonalar bandligining o'sishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni ko'rib chiqadi va ularni yo'q qilish yo'llarini taklif qiladi. Ushbu olimlar adabiyot sharhlari Qoraqalpog'istondagi mehmonxonalar bilan bandlik ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi asosiy jihatlarni qamrab oladi va ularni oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mamlakatimizda turizm sohasi jadal rivojlanib, sohaning tez suratlarda o'sishi uchun sharoit yaratilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 1156 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari mavjud. Ulardan 33007 ta xonalar fondi va 63940 ta o'rinalar sonini tashkil qilmoqda.

So'nggi yillarda Qoraqalpog'iston turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va mehmonxona sanoatida moddiy-texnik bazaning yetarli darajada kuchli emasligi tufayli chet ellik tashrif buyuruvchilar uchun jozibadorligini yo'qotmoqda. Bugungi kunda mavjud bo'lgan joylashtirish vositalarining past darajadagi qulaylik imkoniyatlari va texnik jihozlar yetishmasigi raqobatbardoshlikni yo'qotishiga olib keladi. Xalqaro darajadagi xizmatni faqat Nukusdagi 43 ta joylashtirish vositalaridan, ba'zi yuqori darajadagi mehmonxonalar ta'minlashi mumkin: 4 yulduzli mehmonxonalaridan: "Karakalpak Palace" va "Aral" mehmonxonasini, 3 yulduzli mehmonxonalar: "Pana Hotel", "Massaget", "Damir", "Asem hotel", "Jipek Joli Inn", "Ratmina Hotel", "Citizen hotel", "Poytaxt" va hostelardan "Danexan Apa Hostel", "NIKA" va "Friend-J" uy mehmonxonalarini xizmat ko'rsatmoqda. Ammo ayrim mehmonxonalar xizmatlari o'z yulduz standartlari darajasiga mos emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi turizm sohasidagi barcha joylashtirish vositalari, xonalar, o'rinalar soni tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

**Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi turizm sohasidagi barcha
joylashtirish vositalari haqidagi
MA'LUMOT**

(01.02.2024 y. holatiga)

T/r	Joylashtitish vositalari	Soni	Xonalar soni	O'rinlar soni
1.	Mehmonxona	31	630	1232
2.	Xostel	26	222	690
3.	Oilaviy Mehmon uyi	45	131	326
	Jami:	102	983	2248

1-jadval ma'lumotlardan shunday hulosa qilishimiz mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasi joylahsturuv vositalari soni 2024 yil holatiga ko'ra, mehmonxonalar 31 tani va hosteller 26 tani tashkil etmoqda. Mehmon uylari esa 45 taga o'sganiga qaramay xonalar soni 131 tani va o'rinlar soni 326 ta mehmonni qabul qila oladi, bu ko'rsatgich esa mehmonxona va hostel joylahsturuv sig'imiga nisbatan past ekenligini ko'rish mumkun. Keyingi (2-jadval)da esa Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi turizm sohasidagi barcha joylashtirish vositalarining tumanlar kesimi bo'yicha taqsimoti tahlil qilindi.

2-jadval

**Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi turizm sohasidagi barcha
joylashtirish vositalarining tumanlar kesimi haqidagi
MA'LUMOT⁹²**

T/r	Tuman nomi	Mehmonxona	Xostel	Oilaviy mehmon uyi	Turoperator	Turagent
1	Nukus shahri	19	12	12	29	3
2	Amudaryo tumani	1	2	-	1	1
3	Beruniy tumani	1	-	-	6	-
4	Bo'zatov tumani	-	-	-	-	-
5	Kegeyli tumani	-	-	-	2	-
6	Qonliko'l tumani	-	-	-	-	-
7	Qorao'zak tumani	1	-	-	-	-
8	Qo'ng'irot tumani	4	3	3	2	-
9	Mo'ynoq tumani	1	7	15	7	-
10	Nukus tumani	-	-	1	1	1
11	Taxiatosh tumani	-	-	-	-	-
12	Taxtako'pir tumani	-	-	1	-	-
13	To'rtko'l tumani	2	-	2	4	-
14	Xo'jayli tumani	-	1	2	4	-
15	Chimboy tumani	-	-	2	-	-
16	Shumanay tumani	-	-	-	-	-
17	Ellikqal'a tumani	2	1	7	1	-
	Jami:	31	26	45	57	5

2-jadvalning joylashtiruv vositalarini tumanlar kesimida bo'lingan qismini tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy joylashtiruv vositalari Nukus shahrida joylashganligi va mehmonxonalar soni 19

⁹² <https://www.qrstat.uz/>

tani, hostel va mehmon uylari 24 tani tshkil etishi, qolgan 12 ta tumanlarga nisbatan 20 barobar ko'p ekanligini ko'rish mumkun. Qoraqalpog'iston Respublikasida umumiy 16 ta tuman bo'lsa undan 4 tasi ya'ni Bo'zatov, Qonliko'l, Taxiatush, Shumanay tumanlarida hech qanday joylashtiruv vositalari yo'q. Bu esa Qoraqalpog'istonda tumanlararo joylashtiruv vositalariga talab va raqobat pastligini ko'rsatadi. Ushbu jadval ko'rsatgichlariga nisbatan faqat Nukus shahrida asosiy 29 ta turoperator va 3 ta turagentlar faoliyatidan ko'rinish turibdiki, Qoraqalpog'iston mintaqasida mehmonxonalar bandligini ta'minashga asosan poytaxtda e'tibor qaratilmoqda. Tuoperator va turagentliklar faoliytyida esa ichki turizm bilan shug'llanuvchilar kamchilikni tashkil qiladi. Bu esa joylashtiruv vositalarini hududiy qamrovi talablarga javob bermasligi, mintaqada ayrim tumanlarning turistik salohiyati ko'pligiga qaramay, infratuzilma imkoniyatlari va marketing tashabbuslari sust ekanligi, joylashtiruv vositalarini ko'paytirish zaruratinini pasaytirmoqda.

Qoraqalpoq hududida so'nggi 3 yil ichida turar joy binolari qurilishi tahlili barqaror o'sishni ko'rsatmoqda. Mehmonxona bozorida talabning ortishiga olib keladigan xorijlik sayyoohlar sonining ko'payishi turar joy ob'ektlari sonining o'sishining asosiy omili hisoblanadi. Shunday qilib, joylashtirish ob'ektlari sonining o'sish sur'ati turistlar oqimining o'sish sur'atlariga ta'sir qiladi. Qoraqalpog'iston O'zbekistonning o'ziga xos mintaqasi bo'lib, uning turistik potentsiali tobora oshib bormoqda. Quyida, Qoraqalpog'istonda ichki va xorijiy turistlarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha so'nggi besh yil davomida tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasining Turizm sohasidagi kirish, chiqish, ichki turizm va turizm xizmatlari eksporti ko'rsatkichlari⁹³

Ko'rsatgichlar nomi		O'lchov birligi	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Xorijiy turistlar	Reja	ming nafar	40,0	50,0	70,0	80,0	90,0	20,0	50,0	112,0
	Amalda		42,0	55,0	82,0	100,4	3,0	24,0	50,1	117,9
	Bajarilishi	foiz	105%	110%	117%	126%	3%	120%	100%	105%
Ichki turistlar	Reja	ming nafar	70,0	100,0	250,0	400,0	500,0	200,0	552,4	1044,0
	Amalda		82,0	122,0	347,0	551,0	40,0	284,0	608,0	1095,0
	Bajarilishi	foiz	117%	122%	139%	138%	8%	142%	110%	105%

Ko'rib chiqilgan ma'lumotlarga asoslanib, so'nggi 5 yil ichida ichki turistlarga ko'rsatilgan xizmatlar soni xorijiy turistlarga qaraganda sezilarli darajada ko'proq ekanligini ko'rish mumkin, lekin ichki turistlarning o'rtacha yillik o'sish ko'rsatgichi 10% ga oshgan bo'lsa, xorijiy turistlarning soni esa yillik o'rtacha 20% ga oshganini ko'rish mumkun. Tahlilda ayniqla 2020 va 2021 yillarda pandemiya sababli kuzatilgan keskin farqlar tufayli, xorijiy turistlarning soni juda pasayib ketgan, ichki turizm ham keskin kamayishiga olib kelgan, biroq pandemianing hududdiy chekinishi tufayli 1 yildan so'ng ichki turistlar soni qayta oshgan. Bundan shunday hulosa qilish mumkunki, Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylarga ega, ichki va xorijiy turistlar uchun qiziqarli destinatsiya hisoblanishidan qat'y nazar, xorijiy turistlarni oqimi yetarli darajada emasligi aynan joylashtirish vositalarining kam bandlik muammosiga sabab bo'lmoqda.

Bu masala bo'yicha Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Mehmonxona biznesini boshqarish kafedrasini professori Otelerlar Assotsatsiyasi eksperti Safoyeva Sayyora Rixsibayevnaning (2024) Turizmni "yashillashtirish". Bu nima uchun kerak va qanday bajariladi? mavzusidagi maqolada "Ekologik mezonlarga ustuvor ahamiyat qaratish orqali

⁹³ <https://www.qrstat.uz/>

mehmonxona biznesi tabiat himoyasiga hissa qo'shish bilan birga, raqobatbardoshligini ham ta'minlay oladi " degan fikr ilgari surilgan. Bu fikrlardan kelib chiqqan xolda joylashtirish vositalarining turli mezonlarga asoslangan xolda raqobatdoshlikga erishishi orqali kam bandlik muammosini bartaraf qilish imkoniyatiga erishish mumkun.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston mintaqasida mehmonxonalar bandigini samarali oshirish uchun quyidagi strategiyalarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni qo'llash zarur:

1. Turli mamlakatlardan sayyoohlarni jalb qilish uchun marketing tashabbuslari.

2. Xizmat sifatini yaxshilash va mehmonlar uchun qulaylik.

3. Infratuzilmani rivojlantirish va qo'shimcha sayyoohlilik ob'ektlarini yaratish.

4. Mehmonxona taklifini modernizatsiya qilish va kengaytirish uchun investitsiyalarni jalb qilish.

5. Turoperatorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish.

Mamlakatimizda mehmonxona biznesini yangi bosqichlarda rivojlantirish, mamlakatimizni jahon turizm markazlaridan biriga aylantirish uchun avvalo huquqiy zamin yaratish zarur. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining mazkur yo'nalishga taalluqli qonun va kodekslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasiga oid qat'iy qator farmonlari ishlab chiqilib amalga oshirildi. Misol tariqasida 2022-2026-yillarda qoraqalpog'iston respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatidan samarali foydalanish, ichki va xorijiy turizm bozorlari uchun hududning jozibadorligini oshirish, turizm, madaniy meros, madaniyat va san'at sohalari infratuzilmasini yaxshilash, yangi turizm xizmatlarini joriy qilish, milliy hunarmandchilik mahsulotlari turlarini ko'paytirish, sohada yangi ish o'rinalarini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi:⁹⁴ Qarorning 3 bandiga muvofiq, quyidagilar Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni yanada rivojlantirishning asosiy maqsadlari etib belgilandi:

-zamonaviy turizm infratuzilmasi obyektlari (mehmonxona majmualari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va turistik ahamiyatga ega boshqa obyektlar) hamda maxsus funksional va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarini yaratish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish;

-hududning ekonomuhiti imkoniyatlarini hisobga olgan holda turizmnning safari, ekstremal, etno turlari bo'yicha o'ziga xos turizm yo'nalishlarini tashkil etish;

-hududda yangi yo'lovchi transporti (avtobus, mikroavtobus va boshqalar) yo'nalishlarini kengaytirish, ularning muntazam qatnovlarini tashkil etish, tegishli transport infratuzilmasini rivojlantirish;

-hududda noyob tabiiy obyektlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning genetik fondini saqlash, daraxtlar nobud bo'lismiga yo'l qo'ymaslik, o'rmonzorlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shuningdek, antropogen faoliyatning atrof muhitga salbiy ta'sirining oldini olish va kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish (Qaror, 2022). Ushbu farmonda belgilangan Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda (4-jadval).

⁹⁴ (<https://lex.uz/docs/-6212913>)

4-jadval

**2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini
rivojlantirishning
MAQSADLI KO'RSATKICHLARI⁹⁵**

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.	2026-y.
1.	Ichki turistlar tashrifi soni (ming kishi)	552	663	774	885	996
2.	Xorijiy turistlar soni (ming kishi)	50	80	110	150	180
3.	Xizmatlar eksporti (mln AQSh doll)	13,5	25	36,5	48	59,5
4.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni	1 005	1 200	1 360	1 555	1 905
5.	Mehmonxonalaridagi xonalar fondining bandlik darajasi	35,0	43,0	51,0	59,0	74,0
6.	Joylashtirish vositalaridagi o'rinalar soni	1 990	2 260	2 520	2 850	3 370
7.	Mehmonxonalar soni (dona)	36	40	42	44	50
8.	Oilaviy mehmon uylari soni (dona)	48	57	66	78	92
9.	Xostellar soni (dona)	23	29	35	41	48
10.	Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini oshirib borish	10	12	14	16	20

Ushbu 4-jadvalda turizm sohasiga oid 2022-2026 yillar davomidagi asosiy ko'rsatkichlar berilgan. Tahlil qilinib quyidagi xulosalarga kelish mumkunki: Ichki turistlar tashrifi soni yil sayin oshib bormoqda. 2022 yilda 552 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2026 yilga kelib bu ko'rsatkich 996 ming kishiga yetadi. Xorijiy turistlar soni ham barqaror oshib bormoqda. 2022 yilda 50 ming kishidan 2026 yilda 180 ming kishiga ko'payishi ko'zda tutilgan. Xizmatlar eksporti 2022 yildagi 13,5 mln AQSh dollaridan 2026 yilga kelib 59,5 mln AQSh dollariga oshadi. Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni 2022 yildagi 1,005 mingdan 2026 yilda 1,905 mingga ko'payadi. Mehmonxonalaridagi xonalar fondining bandlik darajasi 2022 yildagi 35%dan 2026 yilda 74%ga ko'tariladi. Joylashtirish vositalaridagi o'rinalar soni 1,990 mingdan 3,370 mingga oshadi. Mehmonxonalar soni 36 tadan 50 taga ko'payadi. Oilaviy mehmon uylari soni 48 tadan 92 taga oshadi. Xostellar soni 23 tadan 48 taga ko'payishi va internet qamrovi darajasi 10%dan 20%ga oshirilishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, 2022-2026 yillarda turizm sohasida barcha ko'rsatkichlar ijobjiy tendentsiyaga ega bo'lib, ushbu davrda turizm sohasining rivojlanishi kuzatiladi. Bu kelajak ko'rsatkichlari amalda ham shunday barqarorlik natijalariga erishishi uchun barcha rivojlanish mezonlarni qollagan holda faol chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son 2023-yil 27-iyuldagagi qarori, (Qaror, 2023) tadbirkorlik subyektlari tomonidan mehmonxonalar qurilishini rag'batlantirish, turizm sohasida investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirilishini jadallashtirish, taniqli va nufuzli xalqaro mehmonxona brendlarini mamlakatga faol jalb etish, respublikadaga umumiy mehmonxona xonalari sonini oshirishga qaratilgan vazifalarni huquqiy tartibga soladi.

Xulosa va takliflar.

Qoraqalpog'iston mintaqasida joylashtirish vositasining yetishmaslik sabablari bir nechta muammolarni o'z ichiga oladi. Bu muammolardan biri suv resurslarining yetarli emasligi va suv ta'minoti muammolari, ikkinchisi esa ikki suv oqimining (Amudaryo va Sirdaryo) suv oqimlarining qayta ishlab chiqarilishi va suv sarfini kamaytirishga yo'naltirilgan sanoat hududlaridagi harakatsizlik, uchinchisi, yer quyosh energiyasidan foydalanishni rivojlanirishga yo'naltirilgan investitsiyalar darjasining pastligi. Boshqa sabablar esa iqtisodiy va sotsial infratuzilma, ekologik muammolar, ijtimoiy infratuzilma kabi ko'plab

⁹⁵ <https://lex.uz/docs/-6212913>

omillarni tashkil etadi. Bu sabablardan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston mintaqasida turizm va joylashtirish vositasining yetarli darajada rivojlantirish uchun yuqorida ko'rsatilgan muammolar hal qilinishi kerak.

Qoraqalpog'iston mintaqasida mehmonxonalarining bandligini oshirish turizm va mintaqasi iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim vazifadir. Ushbu muammoni hal qilishda kompleks yondashuvni qo'llash ko'proq sayyohlarni jalg qilishga va mehmonxona biznesini rivojlantirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литерапия/Reference:

Atanbayeva G. (2022) "Qoraqalpog'iston mehmonxona infratuzilmasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish" ilmiy ish.

Hisobot (2023) Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm vazirligining "2018-2022-yillar uchun mehmonxonalar bandligi statistikasi" hisoboti.

Jumabayev R. (2021) "Qoraqalpog'iston mehmonxona biznesini rivojlantirishda turizmning o'rni" maqola.

Kenjebayev B. (2019) "Qoraqalpog'istonda mehmonxona biznesini rivojlantirish tendensiyalari" monografiya.

Qambarova A. (2020) "Qoraqalpog'istondagi mehmonxonalarining bandligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash" tadqiqoti.

Qaror (2022) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining Turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 545-son qarori, 2022-yil 28-sentabr.

Qaror (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son qarori, 2023-yil 27-iyul.

Safoeva S.R. (2024) Turizmni "yashillashtirish" Bu nima uchun kerak va qanday bajariladi? Yangi O'zbekiston № 93 (1154), 15 may.